



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

“QUTADG‘U BILIG”DAGI ZOOMOMIK FRAZEOLOGIZMLAR TADQIQIGA DOIR

Sidiqov Qosim Abilovich

Namangan davlat universiteti, professor

Annotatsiya

Maqolada “Qutadg‘u bilig”dagi zoonomik frazeologizmlar lingvokulturologik va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Hayvon nomlari tinchlik, hokimiyat, yovuzlik, taqdir, qahramonlik va ijtimoiy tanlov maydonlarida ramziy kod sifatida izohlanadi. Shuningdek, V. Mey, R. Denkoff va S. Ivanov tarjimalarida obraz, ma’no va funksiya saqlanishi baholanadi, tahlilning umumiy ilmiy natijalari asosida qiyosiy xulosalar chiqariladi.

Kalit so‘zlar: Qutadg‘u bilig, zoonim, frazeologizm, lingvokulturologiya, tarjima, semantika.

К ИССЛЕДОВАНИЮ ЗООНИМИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В «КУТАДГУ БИЛИГ»

Сидиков Касым Абилович

Наманганский государственный университет, профессор

Аннотация

В статье зоонимические фразеологизмы “Кутадгу билиг” рассматриваются с лингвокультурологической и переводоведческой позиций. Названия животных раскрываются как символические коды мира, власти, зла, судьбы, героизма и социального выбора. Также оценивается, как В. Мей, Р. Денкофф и С. Иванов передают образ, смысл, функцию и культурную семантику в переводном тексте сравнительно и научно обоснованно.

Ключевые слова: Кутадгу билиг, зооним, фразеологизм, лингвокультурология, перевод, семантика.

ON THE STUDY OF ZOOMORPHIC PHRASEOLOGICAL UNITS IN “QUTADGU BILIG”

Sidiqov Qosim Abilovich

Namangan State University, Professor

Abstract

The article analyzes zoonomic phraseological units in Kutadgu Bilig from linguocultural and translation studies perspectives. Animal names are interpreted as symbolic codes within fields of peace, power, evil, fate, heroism, and social choice. It evaluates how May, Dankoff, and Ivanov preserve image, meaning, function, and cultural force in translation practice.

Keywords: Kutadgu Bilig, zoonym, phraseology, linguoculturology, translation, semantics.

“Qutadg‘u bilig”dagi zoonomik frazeologizmlarni o‘rganish bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Chunki mazkur birliklar asarda tasodifiy uchraydigan badiiy bezak emas, balki muayyan ma’no maydonlariga uyushgan konseptual tizimni tashkil qiladi. Asardagi “qo‘zi bilan bo‘ri aralashib yurdi”, “arslon bosh bo‘lsa”, “it boshchi bo‘lsa”, “yomonlik ilondir”, “qora quzg‘un edim, oqqush qildi”, “qoraqush oqqushga aralashmaydi”, “arslon yurak”, “qoplon bilak”, “uchadigan qush o‘z eshini biladi, uyur tuzadi” kabi birliklar hayvon nomlarining oddiy nomlash vositasi emas, balki axloqiy, siyosiy va poetik baholash kodi sifatida ishlashini ko‘rsatadi.

Tahlillar va natijalar

Birinchi maydon tinchlik, inoqlik va ideal ijtimoiy tartib maydonidir. “Qo‘zi bilan bo‘ri aralashib yurdi” hamda “bo‘ri tuqli bilan tengqur bo‘ldi” kabi birliklar yurtda osoyishtalik, murosa va adolat qaror topganini anglatadi. Bu yerda bo‘ri va qo‘y tabiiy dushman qutblar sifatida qarama-qarshi qo‘yiladi, ammo ularning bir muhitda totuv yashashi naturalistik holat emas, balki ideal davlat va komil tartibning zoonomik formulasiga aylanadi. Turkiy madaniy an‘anada bo‘ri oddiy yirtqich emas, balki kelib chiqish, himoya va yo‘lboshlovchilik bilan bog‘langan eng markaziy simvollardan biri hisoblanadi. A. Aykun bo‘rini “turk mifologiyasida ota-ona, qutqaruvchi, yetakechi va yo‘l ko‘rsatuvchi” sifatida tavsiflaydi va uning jasorat hamda qudrat ramzi bo‘lib qolganini ta’kidlaydi [1; 3]. Meriç Harmanji ham proto-turklar haqidagi xitoy yilnomalari va O‘g‘uzxon sikli asosida bo‘rining “turkiy tafakkurda nasab, muhofaza va rahnamolik bilan uzviy bog‘langan”ini ko‘rsatadi [6; 338]. Shu bois “bo‘ri” obrazi “Qutadg‘u bilig”da ham faqat xavf emas, balki katta kuchni anglatuvchi ikki qatlamli simvol sifatida ishlaydi. Qo‘y esa aksincha, romlik,

omonatdorlik, itoat va osoyishtalik maydoniga mansub obrazdir. Tulin Kaplan “turk mifologiyasida qo‘y va boshqa xonaki hayvonlar madaniy xotirada ramziy vazifa bajarishi”ni qayd etadi [8; 14]. Demak, bo‘ri va qo‘yning bir makonda inoq yashashi kuch va zaiflik, hujum va himoya, vahshiylik va romlikning muvozanatga kelgan holatini bildiradi. Bu esa asardagi siyosiy-axloqiy g‘oyaning muhim nuqtasini, ya‘ni adolatli hokimiyat sharoitida hatto tabiatan qarama-qarshi kuchlar ham murosaga kelishi mumkinligini ifodalaydi.

Ikkinchi maydon hokimiyat, yetakchilik va qudrat maydonidir. “Arslon bosh bo‘lsa”, “it boshchi bo‘lsa”, “arslon bo‘lib ketadi”, “arslonga o‘xshaydi” kabi ifodalarda hayvon obrazi orqali rahbarlik tabiati, hokimiyat sifati va ijtimoiy boshqaruvning axloqiy mezoni baholanadi. Bu yerda arslon qudrat, jasorat va tabiiy yetakchilik ramzi bo‘lsa, it past maqomli, arzimas yoki nomunosib boshqaruvchining belgisiga aylanadi. Turkiy madaniy an‘anada arslon kuch va hokimiyatning muhim simvollaridan biri ekani bir qator tadqiqotlarda ta‘kidlangan. Meriç Harmanji arslonni turkiy mifologiyada qudrat va kuch ramzi deb baholaydi, shuningdek “Arslan”ning qadimdan xonlar unvoni sifatida qo‘llanganini, uyg‘ur xonlariga ham bu unvon berilganini ko‘rsatadi [6; 342]. A. Aykun ham arslon turklar nazdida jasorat simvoli bo‘lganini, ayrim turkiy hududlarda u bo‘ri o‘rmini ham egallaganini, islomdan keyin esa “Allohning arsloni” formulasi orqali yangi ma‘naviy qatlamga ko‘tarilganini ta‘kidlaydi [2; 255]. Demak, “arslon bosh bo‘lsa” ifodasi oddiy tashbeh emas, balki turkiy siyosiy tafakkurda ideal hokim kuchli, mard, tabiiy nufuzga ega va himoya qiluvchi shaxs bo‘lishi kerak degan g‘oyaning zoonomik formulasiga aylanadi. Aksincha, “it boshchi bo‘lsa” birligida yetakchilikning qadrsizlashuvi ifodalanadi. Bu yerda “it” obrazi biologik emas, aksiologik vazifa bajaradi, ya‘ni jamiyatni boshqarishga munosib bo‘lmagan tabiatni ifodalaydi. Shu ma‘noda mazkur juftlik “komil rahbar” va “nomunosib boshchi” o‘rtasidagi siyosiy-axloqiy antitezani shakllantiradi.

Uchinchi maydon axloqiy baholash, xavf va yovuzlik maydonidir. “Yomonlik ilondir, u seni chaqadi”, “qalin och bo‘rilar yig‘ilgan”, “quturgan bo‘ridek jar soldim”, “ko‘ppakdek qopadilar”, “tutqun it” kabi ifodalarda hayvon obrazi orqali yovuzlik, hirs, tajovuz, mutelik va qadrsizlik semantiklashadi. Bu yerda zoonimlar tabiatni betaraf tasvirlash uchun emas, balki axloqiy hukmni kuchli va tez ta‘sir etuvchi shaklda berish uchun xizmat qiladi. Shu ma‘noda ilon, bo‘ri va it kabi obrazlar muallif uchun yomonlikning aniq va tanish timsollariga aylanadi. Turkiy mifologiyaga oid tadqiqotlarda ilon ayrim hollarda sirli yoki qo‘riqlovchi qatlamga ega bo‘lsa ham, salbiy qutbda xavf, jazo va tahdid bilan bog‘lanishi qayd etilgan [1; 3]. “Yomonlik ilondir, u seni chaqadi” birligida aynan shu salbiy qatlam faollashib, yomonlikning yashirin, zaharli va muqarrar zarar keltiruvchi tabiati ochiladi.

To‘rtinchi maydon vaqt, taqdir, tashqi-ichki o‘zgarish va poetik transformatsiya maydonidir. “Qora quzg‘un edim, oqqush qildi”, “qora qush pariga to‘ldi”, “oqqush tutadi”, “san‘at-hunarining ravishi oqqushdek” kabi ifodalarda qush obrazlari qarilik, baxt, go‘zallik va nafosatning poetik belgilariga aylanadi. Ayniqsa, “qora quzg‘un edim, oqqush qildi” misolida quzg‘undan oqqushga o‘tish inson hayotidagi yoshlikdan qarilikka, qoralikdan oqlikka, tabiiy holatdan taqdir muhriga o‘tishni anglatadi. Bu yerda rang almashinuvi tashqi o‘zgarishnigina emas, balki vaqtning inson tanasi va taqdiriga tushirgan izini ham badiiylashtiradi. Aida Kasiyeva “Qutadg‘u bilig”da qush obrazlari murakkab fikrlarni jonli metafora orqali berishga xizmat qilishini, jumladan qora qush orqali osmon va olamning metaforik tasviri yaratilishini ko‘rsatadi [9; 12]. Shu ma‘noda qush zoonimi bu maydonda naturalistik emas, balki poetik-falsafiy vazifa bajaradi.

Turkiyshunoslik nuqtai nazaridan qushlar, ayniqsa oqqush, turkiy madaniy xotirada yuksaklik, poklik va estetik nafosat bilan bog‘langan. Turk mifologiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda qushlar eng faol ramziy qatlamlardan biri ekani, oqqush esa ayrim turkiy jamoalarda muqaddas va musbat semantik yukka ega qush sifatida qayd etilgan [8; 14]. “Qora quzg‘un” va “oqqush” qarama-qarshiligi “Qutadg‘u bilig”da oddiy ornitologik tafovut emas. U vaqt, taqdir va qadriyat o‘rtasidagi poetik oppozitsiyaga aylanadi. Quzg‘un qorong‘ulik, qarilik yoki hayotning og‘ir bosqichini anglatrsa, oqqush go‘zallik, oqlik, yuksaklik va ma‘naviy nafosat tomoniga yo‘nalgan ramziy qutb sifatida ishlaydi.

Beshinchi maydon jasorat, qahramonlik va jismoniy qudrat maydonidir. Bu maydondagi “arslon yurak” va “qoplon bilak” kabi birikmalar oddiy badiiy aniqlovchi emas, balki zoonomik va somatik kodlarning yagona poetik tuzilmaga aylangan ko‘rinishidir. Bu yerda hayvon nomi inson a‘zosi bilan qo‘shilib, qahramonning ham ichki, ham tashqi qudratini bir vaqtda ifodalaydi. Z. Kövecses metaforaning an‘anaviy namunasi sifatida “He is a lion” tipidagi ko‘chishni keltirar ekan, bunday ifodada sher obrazi insonga jasorat va kuch belgilarini ko‘chirishini ko‘rsatadi [10; 1]. Shu nuqtai nazardan “arslon yurak” birikmasida yurak fiziologik a‘zo sifatida emas, balki botirlik, matonat va ruhiy barqarorlikning konseptual markazi sifatida ishlaydi. S. Jamshaid va A. Iqbol esa “sher dil” birikmasini maxsus tahlil qilib, unda sher

obrazi ijobiy konnotatsiyaga ega ekanini, ya'ni bunday shakl juda jasur va qo'rqmas insonni anglatishini ta'kidlaydi [7; 127]. Demak, mazkur maydonda hayvon quvvati inson tanasiga ko'chirilgan ekan, matnda qahramonning ruhiy jasorati va jismoniy qudrati yagona ideallashtirilgan obrazga birlashadi.

Oltinchi maydon ijtimoiy muhit, ma'naviy moslik va estetik ideal maydonidir. Undagi "Qoraqush oqqushga aralashmaydi" va "uchadigan qush o'z eshini biladi, uyur tuzadi" kabi birliklar paremiologik fikrning tayyor shaklga kelganini ko'rsatadi. Paremiologiyada maqol va maqolsimon birliklar faqat tasvir emas, balki "ijtimoiy injunksiya", didaktik kuch va muayyan vaziyatda amaliy yo'nalish ko'rsatuvchi hukm sifatida talqin qilinadi; shu ma'noda mazkur ifodalar tabiat manzarasidan jamiyat me'yoriga o'tadi va "kim kim bilan yarashadi", "kim qaysi muhitni tanlaydi" degan ijtimoiy tanlovni zoonomik obraz orqali qonuniylashtiradi. Outi Lauxakangas ham "maqollarni kundalik tafakkurning ko'p vazifali vositasi, ijtimoiy kontekstda esa izohlash, baholash, ogohlantirish va harakatga yo'naltirish instrumenti" deb baholaydi [11; 77]. Shu nuqtai nazardan "qoraqush" va "oqqush" qarama-qarshiligi oddiy ornitonimik oppozitsiya emas, balki axloqiy va ijtimoiy stratifikatsiyaning poetik modeli sifatida ishlaydi. Bu yerda qushlar haqida gap ketmayapti, balki insonlar orasidagi muvofiqlik, tabiat, martaba va ma'naviy saviya haqida gap ketyapti. Demak, bu maydonda zoonomik obraz muallif xulosasini qisqa, esda qolarli va normativ shaklga aylantiruvchi semantik mexanizm vazifasini bajaradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash o'rinliki, "Qutadg'u bilig"dagi zoonomik frazeologizmlar asar poetikasida tasodifiy uchraydigan obrazlar yig'indisi emas, balki muayyan semantik maydonlar asosida tuzilgan mukammal ma'no tizimidir. Tahlil qilingan maydonlar orqali hayvon nomlari turli funksional qirralarda namoyon bo'ladi: bir tomondan ular tinchlik, inoqlik, hokimiyat, jasorat, axloqiy baholash, ijtimoiy tanlov, vaqt va taqdir kabi yirik konseptlarni ifodalasa, ikkinchi tomondan turkiy madaniy xotira, mifologik tasavvur va didaktik dunyoqarashning tildagi barqaror izlarini saqlaydi. Endi yuqoridagi zoonomik frazeologizmlarni ingliz va rus tillarida qayta yaratish masalasining umumiy jihatlarini tahlil etamiz.

V. Mey tarjimasida "Qutadg'u bilig"dagi zoonomik frazeologizmlar bir xil usulda emas, balki obraz va ma'no o'rtasidagi nozik muvozanat asosida qayta yaratilgani kuzatiladi. Bu holat "metafora tarjimasida har doim tarjimonni obrazni saqlash yoki ma'noni kuchaytirish o'rtasida tanlov qilishga majbur etishi" bilan izohlanadi [12; 113]. S. Bassnett "idioma va metafora tarjimasida asl matnning barcha lingvistik unsurlarini mexanik saqlash shart emasligini, aksincha, tarjima jarayonida manba matndagi ayrim til birliklari chetga surilib, maqsad matnda ifodaviy tenglik yaratilishi mumkinligi"ni ta'kidlaydi [4; 33]. Shu jihatdan qaraganda, V. Meyning "qora quzg'un edim, oqqush qildi" birligini "crow" – qora qarq'a va "swan" – oqqush obrazlari orqali qayta berishi asl zoonomik ramzni ham, qarilik va tashqi o'zgarishga doir poetik semani ham saqlab qolgan muvaffaqiyatli badiiy qaror sifatida baholanadi. Demak, tarjimon ayrim hollarda zoonomik frazeologizmning leksik qiyofasini emas, balki uning badiiy funksiyasi va konseptual yukini ustuvor qiladi.

Shu bilan birga, V. Mey ayrim misollarda asl obrazni to'liq saqlasa, boshqa o'rinlarda uni ingliz she'riy an'anasiga yaqinroq obraz bilan almashtiradi. Ye. Nayda nazariyasida bunday holat "formal ekvivalentlik va dinamik ekvivalentlik o'rtasidagi farq" bilan tushuntiriladi [13; 159]. Shu nuqtai nazardan, "yomonlik ilondir, u seni chaqadi" kabi birliklarda "snake" – ilon obrazining saqlanishi formal yaqinlikka moyillikni ko'rsatsa, "qo'zi bilan bo'ri aralashib yurdi" misolida bo'rining "lion" – sher bilan almashishi dinamik ekvivalentlikka intilish sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu yerda tarjimon asl manbadagi turkiy zoosemantik juftlikni to'liq takrorlamaydi, lekin maqsad o'quvchi ongida tinchlik va totuvlik g'oyasini kuchliroq ishlata oladigan ramziy juftlikni tanlaydi.

V. Mey tarjimasida bu ikki tendensiya navbatma-navbat ishlaydi. Ayrim joylarda u "wolf", "swan", "snake" kabi obrazlarni saqlab, manba matnning poetik begonaligini qoldiradi, ayrim joylarda esa "lion" va "lamb" – qo'zi kabi ingliz o'quvchisiga tanishroq ramzlarga tayanadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, ayrim zoonomik frazeologizmlar tarjimada qisman neytrallashadi yoki qayta tuziladi. J. Ketford bunday holatlarni "tarjima siljishi", ya'ni manba va maqsad til o'rtasidagi formal muvofiqlikdan chekinish deb ta'riflaydi [5; 73]. V. Meyning "sen bir bo'risan", "tutqun it", "tanu jon ovchi it kabidir" kabi birliklarda asl zoonomik komponentni to'liq saqlamasligi ana shu siljishning amaliy ko'rinishidir. Biroq buni tarjima kamechiligi sifatida emas, balki uslubiy va madaniy moslashtirish natijasi sifatida baholash to'g'riroq bo'ladi. Chunki tarjimonning asosiy maqsadi har bir hayvon obrazini formal jihatdan ko'chirish emas, balki ular orqali ifodalangan hirs, tajovuz, jasorat, totuvlik, ijtimoiy tabaqalanish kabi semantik qatlamlarni maqsad tilda qayta jonlantirishdan iborat. Shu sababli V. Mey tarjimasida zoonomik frazeologizmlarning barchasini bir xil darajada saqlamas ham, ularning katta

qismining konseptual o'zagini, axloqiy bahosini va badiiy funksiyasini asrab qolgan semantik va poetik talqin sifatida baholanishi mumkin.

R. Denkoff tarjimasida "Qutadg'u bilig"dagi zoonomik frazeologizmlar, umuman olganda, asl matn obrazini mexanik ko'chirish asosida emas, balki ma'no, funksiya va qabul muhiti o'rtasidagi muvozanatni saqlash asosida qayta berilgani kuzatiladi. Bu holat G. Turi ta'kidlagan tarzda "tarjima avvalo maqsad madaniyatning amaliy fakti sifatida yashashi, uning tahlili esa funksiya, jarayon va mahsulot birligini hisobga olishi lozimligi" bilan uyg'unlashadi [14; 17]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, R. Denkoff ayrim birliklarda zoonomik obrazni to'liq saqlaydi. Masalan, "lamb" – qo'zi va "wolf" – bo'ri, "raven" – qarg'a va "swan" – oqqush, "serpent" – ilon, "lion" – sher, "leopard" – qoplon, "birds" – qushlar kabi obrazlar orqali asl matndagi axloqiy baholash, didaktik xulosa va poetik ta'sirni qayta tiklaydi. Ayniqsa, tinchlik, qarilik, yomonlik, jasorat va ijtimoiy munosabat kabi semantik maydonlarda tarjimon asl ramziy tizimga nisbatan ehtiyotkor va nisbatan yaqin turishga intiladi.

Shu bilan birga, R. Denkoff tarjimasida barcha zoonomik frazeologizmlar bir xil darajada formal saqlanmaydi. M. Beyker ta'kidlaganidek, "tarjimada so'z darajasidagi nomuvofiqlik, semantik maydonlar tafovuti va madaniy xos tushunchalar ko'pincha tarjimonni umumiyroq birlik, yaqinroq nom yoki izohlovchi kompensatsiyaga murojaat qilishga olib keladi" [3; 18]. Shu sababli R. Denkoffda ayrim o'rinlarda asl hayvon turi almashadi, ba'zi holatlarda esa zoonomik komponent neytrallashadi. Masalan, "swan" – oqqush obrazining "white falcon" – oq lochin bilan almashishi yoki "dog" – it obrazining "captive" – asir semasi ichiga singdirilishi tarjimonning formani emas, balki ma'no yukini va didaktik vazifani ustuvor qo'rganini ko'rsatadi. Demak, bu tarjimada leksik aynanlikka nisbatan funksional moslik va mazmuniy uzviylik muhimroq o'rin tutadi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, R. Denkoff tarjimasida zoonomik frazeologizmlarning bir qismini obraz, sema va ramziy vazifasi bilan birga saqlaydi, boshqa qismini esa maqsad matnning qabul imkoniyatiga mos ravishda qayta modellashtiradi. Bu hol tarjimonning asl matnga beparvo yondashganini emas, aksincha, uning ma'no qatlamlarini kontekst, madaniy kod va o'quvchi qabul qilish imkoniyati bilan uyg'unlashtirganini anglatadi. Mazkur tarjima zoonomik frazeologizmlarning barchasini formal ko'rinishda qayta tiklamasa ham, ularning asosiy konseptual o'zagini, axloqiy bahosini va badiiy-didaktik funksiyasini saqlab qolgan ilmiy va mazmunan muvozanatli tarjima sifatida baholanishi mumkin.

S. N. Ivanov "Qutadg'u bilig"dagi zoonomik frazeologizmlarni tarjimada, avvalo, asliyatning konseptual va axloqiy o'zagini saqlash tamoyili asosida qayta yaratgan. A. Pim "tarjimon har bir tarjima muammosi oldida turli yechimlar orasidan tanlov qilgan ekan, amalda doimiy nazariylashtirish jarayonini bajaradi", deb yozadi [15; 152].

Ivanov tarjimasida aynan shu ikki jihat yaqqol ko'rinadi. Masalan, "qo'zi bilan bo'ri aralashib yurdi" motivi ruscha matnda "волк" va "ягненок" qarama-qarshiligi saqlangan holda berilib, tinchlik va osoyishtalik g'oyasini kuchli ramziy shaklda ifodalaydi. "Qora quzg'un edim, oqqush qildi" birligida ham "ворон" va "лебедь" antitezasi saqlangani uchun qarilik, oqarish va tashqi o'zgarish semasi yo'qolmaydi. Shuningdek, "arslon bosh bo'lsa" va "it boshchi bo'lsa" tipidagi siyosiy-axloqiy birliklar "лев", "собака" va "пёс" obrazlari orqali ruscha matnda ham aniq qayta quriladi. Demak, Ivanov asliyatdagi zoonomik kodni mexanik ko'chirmaydi, balki uni rus she'riy nutqi ichida qayta jonlantirib, uning axloqiy-didaktik vazifasini saqlab qoladi.

Shu bilan birga, Ivanov tarjimasida ayrim zoonomik birliklarni kengaytirilgan she'riy manzaraga aylantiradi. J. Munday "ekvivalentlik mutlaq emas, balki til va madaniyat omillari ta'sirida nisbiy hodisa ekanini" ko'rsatadi [16; 95]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Ivanovda "uchadigan qush o'z eshini biladi, uyur tuzadi" motivi qushlar to'dasi haqidagi kengroq poetik tasvir orqali umumlashtiriladi. Xuddi shu kabi, harbiy fazilatlarini tasvirlashda tarjimon bir necha zoonomik belgi tizimini qatorlashtiradi: "смелость львиную", "хватку тигриную", "волчий бросок", "медвежью свирепость", "олений наскок", "как лисы", "как ворон", "словно сова". Bu yerda asliyatdagi ayrim ixcham zoonomik birliklar ruscha matnda bir butun poetik portretga aylantirilgan. "Quturgan bo'ridek jar soldim" mazmunining "как бешеный волк" tarzida berilishi esa tajovuz, hirs va zo'ravonlik semasini yanada kuchaytiradi. Shunday qilib, Ivanov tarjimasida zoonomik frazeologizmlarning asosiy ramziy o'zagini saqlagan holda, ularni rus poetik uslubi doirasida semantik jihatdan moslashtiradi va ekspressiv jihatdan kuchaytiradi.

Xulosa

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, "Qutadg'u bilig"dagi zoonomik frazeologizmlar asar poetikasida tasodifiy badiiy vositalar emas, balki muayyan semantik maydonlarga uyushgan konseptual tizimni tashkil etadi. Ular tinchlik va ideal ijtimoiy tartib, hokimiyat va yetakchilik, yovuzlik va xavf, vaqt

va transformatsiya, qahramonlik va jismoniy qudrat, ijtimoiy tanlov va filologik refleksiya kabi yirik ma'no sohalarini qisqa, kuchli va esda qolarli poetik formulalar orqali ifodalaydi. Demak, zoonimlar asarda biologik nomlash birligi darajasida qolmaydi, balki aksiologik, mifopoetik va lingvomadaniy kodga aylanadi. Shu jihatdan "Qutadg'u bilig"ning zoonomik qatlami asarning axloqiy, siyosiy va falsafiy mazmunini tashuvchi markaziy semantik mexanizm sifatida baholanishi lozim.

Tahlil natijalari zoonomik frazeologizmlar tarjimasida to'rt asosiy jarayonni aniq ko'rsatadi: obrazni to'liq saqlash, obrazni yaqin ramz bilan almashtirish, obrazni kengaytirilgan poetik manzaraga aylantirish va obrazni qisman neytrallashtirish. Bu esa tarjimon faqat tillar o'rtasida emas, balki madaniy kodlar, ramziy tizimlar va qabul muhitlari o'rtasida ham muzokara olib borishini anglatadi. Shu ma'noda "Qutadg'u bilig" tarjimalari zoonomik frazeologizmlar tarjimasida mutlaq formal tenglikka erishishdan ko'ra, ramziy o'zak va didaktik funksiyani saqlash muhimroq ekanini ko'rsatadi. Demak, bu birliklar tarjimasini baholashda asosiy mezon leksik moslik emas, balki axloqiy hukm, madaniy rang va poetik ta'sirning qayta yaratilganlik darajasi bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Altınkaynak E. Analysis of the Dragon Killing Scene in the Mythology of the Peoples of Eurasia. – P. 3.
2. Aykun A. İ. Examining Animal Figures in Turkish Mythology in Terms of Veterinary Medicine History // Harran Üniversitesi Veteriner Fakültesi Dergisi. – 2023. – P. 260, 262.
3. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – 3rd ed. – London; New York: Routledge, 2018. – P. 18.
4. Bassnett S. Translation Studies. – 4th ed. – London; New York: Routledge, 2014. – P. 33–34.
5. Catford J. C. A Linguistic Theory of Translation: An Essay in Applied Linguistics. – London: Oxford University Press, 1965. – P. 73.
6. Harmanlı M. In the Context of Turkish Culture Animal Symbolism in Heterodox Dervishes // Folklor/Edebiyat. – 2022. – P. 338, 342.
7. Jamshaid S., Iqbal A. Metaphorical Use of Animals in English and Punjabi Exocentric Compounds: A Cognitive Cultural Perspective // Pakistan Social Sciences Review. – 2022. – Vol. 6. – No. 1. – P. 127–128.
8. Kaplan T. Türk Mitolojisinde Hayvanlar // Gaziantep University Journal of Social Sciences. – 2021. – P. 13–15.
9. Kasiyeva A. Stylistic Devices in the Kutadgu Bilig and the Adequacy of Their Translation into English. – P. 12–13.
10. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – P. 1.
11. Lauhakangas O. Use of Proverbs and Narrative Thought // Folklore. – 2007. – Vol. 35. – P. 77–78, 81.
12. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice-Hall International, 1988. – P. 113.
13. Nida E. A. Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. – Leiden: E. J. Brill, 1964. – P. 159.
14. Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. – Revised ed. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 2012. – P. 17.
15. Pym A. Exploring Translation Theories. – 2nd ed. – London; New York: Routledge, 2014. – P. 1.